
TOSHLOQ TUMANIDA KUZ-QISH MAVSUMIGA QIZG'IN TAYYORGARLIK KO'RILMOQDA

Toshloq tumanida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni 2023-2024 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Tumanda ishchi guruhlarini tashkil etilib, mavsumga tayyorgarlik ishlari qat'iy nazorat qilib borilmoqda.

Bugun tumandagi ishchi guruh rahbarlari va tegishli soha vakillari ishtirokida shaxsiy tarkib jalb etilib, kuchaytirilgan tartibda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik tadbirlari uchun yo'riqnoma jarayoni bo'lib o'tdi. Unda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev so'z olib ko'p qavatli uylar, ijtimoiy soha ob'ektlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati hamda aholi muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha o'rganish ishlarini olib borilishi haqida to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng, belgilangan topshiriqlar yuzasidan mutassadi tashkilotlar hamda maxsus texnikalar mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun hududlarga yo'l oldilar.

2023-10-30 14:12:54